XALQ DEPUTATLARI OLMAZOR TUMANI KENGASHINING QARORI

Toshkent 100095, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (71) 207-31-41

2024 - yil 14 - fevral II-92-21-14-197-K/24 Olmazor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Olmazor tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi II-90-184-14-197-K/23 -sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, Budjet kodeksi, xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga asosan Xalq deputatlari Olmazor tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Olmazor tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi II-90-184-14-197-K/23-sonli qarorida:

- 5-bandini ikkinchi qismi “a)” bandining to‘rtinchi xatboshisi “Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;” chiqarib tashlansin.

- 5-bandini ikkinchi qismi “b)” bandi quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda taqsimlash.”.

2. Mazkur qarorning ijrosi bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (T.Nazarov) va Olmazor tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduraxmanov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A. Umarxonov**